

MAKTABGACHA TA'LIM JARAYONIDA XORIJIY TILNING O'RNI.

To'ychiyeva Marjona Orif qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Maktabgacha va boshlang'ich ta'linda
xorijiy til yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7811897>

Annotatsiya. Dunyo shiddat bilan taraqqiy etayotgan bir davrda chet tilini o'rganish muhimligini taqazo etmoqda. Ushbu maqola Yurtimizda hozirgi kunda xorijiy tilni ommalashib borayotganligi hamda O'zbekiston Respublikasida chet tilini maktabgacha ta'lism jarayonidan boshlab o'rgatishning ahamiyati va samaradorliligi xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'linda chet tili, til o'rganishga bo'lgan talab, bolalar nutqi, xotira rivojlanishi, bolalar psixologiyasi.

РОЛЬ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ПРОЦЕССЕ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ.

Аннотация. В то время, когда мир стремительно развивается, подчеркивается важность изучения иностранного языка. В данной статье отражены популярность иностранных языков в нашей стране и важность и эффективность обучения иностранному языку в Республике Узбекистан начиная от дошкольного образования.

Ключевые слова: иностранный язык в дошкольном образовании, потребность в изучении языка, детская речь, развитие памяти, детская психология.

THE ROLE OF A FOREIGN LANGUAGE IN THE PROCESS OF PRESCHOOL EDUCATION.

Abstract. At a time when the world is rapidly developing, the importance of learning a foreign language is emphasized. This article reflects on the popularity of foreign languages in our country and the importance and effectiveness of teaching a foreign language in the Republic of Uzbekistan starting from preschool education.

Key words: foreign language in preschool education, demand for language learning, children's speech, memory development, child psychology.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2021-yilning 19-maydagi PQ-5117 son qaroriga muvofiq "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" qonun qabul qilingan bo'lib, biz bundan yurtimizda til o'rganishga qaratilgan chuqur e'tiborni ko'rishimiz mumkin. Prezidentimizning tashabbuslari bilan barcha ta'lism sohalariga ingliz tili keng tarqalmoqda va hamma soha ichiga kirib kelmoqda. Chet tilini o'rganishga bo'lgan talabni ayni damda dunyo adabiyotlarining to'qson foizi ingliz tilidaligini va bu til dunyo tili sifatida tan olinganini hisobga oladigan bo'lsak, ingliz tili bugungi kunda nechog'lik zarur ekanligini tushunib yetamiz

Hozirgi kunda til o'rganish zamon talabiga aylanib bormoqda. Shuning uchun bizning yurtimizda til o'rgatishni maktabgacha ta'lism jarayonidan boshlash, bolalarda shu yoshidan qiziqish uyg'otish va ularda ko'nikmani shakllantirib borish, poydevorni bog'chadan boshlash yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu davrda bolalar til o'rgana boshlash uchun qulay vaqtadir. Ularning bu davrda faol, ijodkor hamda ma'naviy yetuk inson qilib yetishtirishning ilk qadamlaridan biri deya

olamiz. Shu sababdan til o'rgatishni shu davrdan boshlash maqsadga muvofiq deb topilgan. Maktabgacha ta'lif bolalarni kashf qilish davri. Chunki, bu yoshdagi bolalar xotira va nutq jihatdan ajralib turadi. Bolaning yoshi qancha kichik bo'lsa, unda so'z boyligi hamda talaffuzga bo'lgan ehtiyoj katta bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolaning psixikasida nutq funksiyalari uchun mas'ul bo'lgan markazlar yetuk bo'lib, ona nutqini o'zlashtirish jarayoni yakunlanadi. Bolalarda so'z boyligi sezilarli darajada oshadi. Bolalarda 3 yoshda o'rtacha 1500-2000ga yaqin, 5 yoshga kelib 2500-3000ga yaqin so'z boyligi rivojlanadi. Biroq bu raqamlar butunlay bolalar o'sadigan muhitga bog'liq hisoblanadi. Shu sababli ularning nutqini to'g'ri shakllantira olishni yo'lga qo'yish kerak. Komenskiyning fikricha, "Bolaning yosh xususiyatlarini hisobga olish asosiga qurilgan ta'limgina uyg'un bo'ladi".

Bolalarda o'tkazilgan tajribalarning ko'rsatishicha, kichik bog'cha yoshdagi bolalarga nisbatan o'rta va katta yoshdagi bog'cha bolalarida ixtiyorsiz va mexanik ravishda esda olib qolish hamda esga tushirish qobiliyati biroz susayadi. Ushbu davrdagi yoshda bolalar o'zlarining faoliyatlari uchun qandaydir ahamiyatga ega bo'lgan, ularda kuchli taassurot qoldirgan va ularni qiziqtirgan narsalarni beixtiyor eslarida olib qoladilar. Ammo, bundan bola ulg'aygani sari ularning xotirasi kuchisizlanadi degan xulosa kelib chiqmaydi. Bu yerda gap shundaki, bolalar o'sib, turmush tajribasi ortgan va nutqi o'sgan sari ular narsa va hodisalar surunkasiga, ya'ni to'g'ri kelganicha emas, balki tanlab o'zlariga kerakligini esda olib qoladigan bo'la boshlaydilar. Shuning uchun til o'rgatishni bog'cha yoshdagi bolalardan boshlash maqsadga muvofiq va ularda shu yoshidan ularda sohada rivojlanish paydo bo'la boshlaydi. Fikrlash darajasi va ularda xotiraning ishlashi ham yaxshilana boshlaydi.

Komenskiyning yana bir fikrida ta'kidlashicha:

- Bolaning aqli o'qitish uchun yetarli darajada tayyorlagan bo'lishi lozim.
- Hamma narsani sekin o'rgata boshlash lozim.
- Bolaning yoshiga to'g'ri kelmaydigan narsalarni unga majburan o'rgatmaslik lozim va o'rganiladigan material ko'plik qilib, bolani qiynab qo'ymaslik kerak.

Dunyo olimlarining ta'kidlashicha, chet tilini o'rganish o'n (10) yoshgacha bo'lgan hollarda oson kechishi haqida yakdil fikrga kelishgan. Bu davrda bola tushunib emas, balki mexanik tarzda o'rganadi, shuning uchun xorijiy tilni qo'llash va talaffuz qilish oson kechadi. Ularda obrazli xotira rivojlangan bo'lib, eshitgan narsalariga nisbatan ko'rgan narsalarni yaxshi eslab qoladilar. Buning asosiy sababi:

- Birinchidan: bog'cha yoshdagi bolalarning idroklari konkret obrazli xarakterga ega
- Kkinchidan: ularda hali nutq to'la-to'kis rivojlanmagan bo'ladi.

Bundan tashqari bog'cha yoshdagi 3 yoshgacha bo'lgan bolalarda miyaning qabul qilish hajmi kattalarga nisbatan 2 baravar tezroq amalga oshirishi isbotlangan. Maktabgacha yoshdagi bolalarda chet tiliga nisbatan psixologik munosabatni yaratish kerak va bunday ijobjiy motivatsiyani yaratish usuli turli xil o'yinlar hisoblanadi. Chet til mashg'ulotlarini o'tkazishning o'yin shakli til ko'nikmalarini va nutq qobiliyatlarini o'zlashtirish uchun qulay sharoit yaratadi. O'yin faoliyatida bolalarning o'z imkoniyatlariga bo'lgan ishonch qobiliyati va chet tilida nutq uchun tabiiy turki berishga imkon beradi. Ularning til o'rganishi aqliy faoliyati va nutq rivojlanishiga yordam beradi, shuningdek ularda keyinchalik bu ingliz tilni o'rganishda qiyinchiliklarga duch kelmaydi, ya'ni bog'cha davrida o'rgangan narsalari ularda maktabda o'qish davrida juda asqotadi. Bolalar uchun har tomonlama ularning xotirasi, nutqi kabilarning yaxshi

rivojlanishida juda foyda beradi. Bizning yurtimizda shu sababli maktabgacha ta'lim jarayonidan bolalarni shu ruhda tarbiyalash maqsadida xorijiy tilni boshlash yo'lga qo'yilgan va buning uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilgan. Olib borilayotgan ishlarning barchasi yosh avlodning yetarli bilim va malakaga ega bo'lishi, ta'lim sohasini yurtimizda yuksaltirish borasida, albatta.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda,maktabgacha yoshdagi bolalardan chet tilini o'rgatish ularning nutqini rivojlanishida va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishda sezilarli darajada o'z samarasini beradi. Til o'rganish keljakda har bir bola uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochishi va yaxshi kadr sifatida rivojlanishi uchun o'z hissasini qo'sha oladi deb o'ylayman. Bu borada ilk qadamni to'g'ri shakllantira olish ham muhim rol o'naydi. Shu sababli, bolalarning kichikligidan ta'lim olishiga to'g'ri yo'naltira olishimiz, qiziqish uyg'otish kelgusidagi ta'limlari uchun dastabki qadamni qo'yishimiz, ularning keljakda jamiyatda o'z o'rniغا ega bo'lishiga va yurtimizga nafi tegadigan shaxs bo'lib rivojlanishidagi birinchi bosqich desak adashmagan bo'lamiz.

REFERENCES

1. <https://lex.uz/uz/docs/-5831978>
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-talim-jarayonida-xorijiy-tillarni-o-qitishning-zamonaviy-metodikalari>
3. <https://zamin.uz/uz/hayot-tarzi/15398-bola-nutqining-rivojlanish-bosqichlari-1-eshdan-7-eshgacha.html>
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/yan-amos-komenskiyning-pedagogik-g-oyalari>
5. <https://www.econferencezone.org/index.php/ecz/article/download/113/103/112>